


NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2024- YIL YANVAR-IYUL (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 79-223-33-29
www.navstat.uz

Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat – bu xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 75 411,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Hajmi, mlrd. so'm




yanvar-iyul
mlrd. so'mda



FHI, % da






yanvar-iyul
FHI, % da



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9 530,6 mlrd. so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 12,6 % ga to'g'ri keldi.




Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat – bu tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan – bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 61 077,6 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 81,0 % ini tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2023- yilning yanvar-iyul oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 8,7 % (9,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 83,5 % (82,9 %) va quyi texnologiyali – 7,4 % (7,1 %)ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

2024- yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 769,4 ming m³ Argon (2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan (7,5 m)), 416,7 ming m³ Kislorod (6,5 m.), 2 038,7 ming dona Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj futbolbalar, maykalar va boshqa ichdan kiyiladigan fufaykalar (142,1 %) ishlab chiqarilib yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyul	2024- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna.	48,6	49,7	1,1
Suvsiz ammiak, ming tonna.	373,1	414,2	41,1
Uglerod dioksidi, tonna.	5 486,3	6 082,1	595,8
Argon, ming m ³ .	103,0	769,4	666,4
Kislorod, ming m ³ .	64,4	416,7	352,3
Natriy sianidlari va sianidoksidlari, ming tonna.	28,4	29,6	1,2
So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak, ming tonna.	49,1	186,5	137,4
Metanal (formaldegid), tonna.	501,0	688,0	187,0
Mochevina (karbamid), ming tonna azot.	112,1	148,0	35,9
Azot, ming m ³ .	56,4	67,6	11,2
Fosfinatlar, fosfonatlar, fosfatlar va polifosfatlar, ming tonna.	308,8	333,5	24,7


* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Argon ishlab chiqarish

(2024- yilning yanvar-iyul oylarida)

Argon – rangsiz va hidsiz gaz, kimyo sanoatida inert muhit vujudga keltirishda, elektr lampochkalarini to'ldirishda, reklama naylarini (ko'k-havo rang shu'lananadi) va yuqori chastotalar texnikasida ishlatiladigan naylarni to'ldirishda qo'llaniladi.

Viloyatimizda 2024- yil yanvar-iyul oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 769,4 ming m³ argon ishlab chiqarildi. Argon ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,5 m. ga ko'paydi.




Azot ishlab chiqarish

(2024- yilning yanvar-iyul oylarida)

Azot – rangsiz, hidsiz gaz bo'lib havoda erkin holda uchraydi va sanoatda suyultirilgan havoni parchalab olinadi.

Viloyatimizda 2024- yilning yanvar-iyul oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 67,6 ming m³ Azot ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,8 % ni tashkil etgan.





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Kislorod ishlab chiqarish

(2024- yilning yanvar-iyul oylarida)

Kislorod – rangsiz, hidsiz va ta’msiz gaz, ko’k kristall hosil qiladi. Kislorod eng faol (ftordan keyin) metallmas element, yengil inert gazlardan boshqa hamma elementlar bilan kimyoviy birikmalar hosil qiladi.

2024- yilning yanvar-iyul oylarida jami 416,7 ming m³ kislorod ishlab chiqarildi, o’tgan yilning mos davriga nisbatan 6,5 m. ga oshdi.





Superfosfatlar ishlab chiqarish

(2024- yilning yanvar-iyul oylarida)

Superfosfatlar – Tabiiy fosfatlardan (apatit va fosforitdan) yoki apatit konsentratidan sulfat kislota bilan ishlab olinadi. Sanoatda bir necha xil ishlab chikariladi. Kukun (oddiy) tez ta'sir qiluvchi, deyarli mushtlanmaydigan, rezina hidi keladigan kulrangoq unsimon universal o'g'it.

2024- yilning yanvar-iyul oylarida superfosfatlar ishlab chiqarishda, jami 1,0 ming tonna P₂O₅ superfosfatlar ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 31,2 % ga ko'paygan.




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 80,1 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 14,3 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 48 913,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish – yo‘lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o‘z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 99,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 358,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,2 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,4 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1 971,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,7 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 101,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4 099,1 mlrd. so'mni tashkil etgan.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,2 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 10,3 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 1 324,2 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-iyul oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,5 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 10,9 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 945,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 761,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,3 % ni) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 5,2 % ga, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 1,4 % ga hamda elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar 5,0 % ga ko'paygan.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyul	2024- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	6 195,5	6 516,3	320,8
Issiqlik energiyasi, ming. gkal	2 793,9	2 833,5	39,6
Elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	1 170,2	1 229,1	58,9

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 42,1 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ni) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar 9,1 % ga hamda oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 2,3 % ga oshdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyul	2024- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	28 187,5	28 835,0	647,5
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	87 263,2	82 147,0	-5 116,2
Quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	29 280,0	31 958,7	2 678,7

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra